



OTA-ONALARNING YOSH AVLODNI TARBIYALASH BO'YICHA MA' NAVIY-" AXLOQIY BILIMLARINI OSHIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18351875>

Yarasheva Yulduz Roziqovna

*Buxoro tumam 1 son texnikumi tarbiya fani o'qituvchisi.
abdullotoirov14@gmail.com*

Bolalarning murg'ak qalbiga hech bir narsa ibratdek kuchli ta'sir etmaydi va barcha ibratlar ichida ota-ona ibratidan kuchliroq va mustahkamroq o'rin oladigan ibrat yo'q.

N.I.Novikov

Rivoyat qiladilarki, bir ona donishmand oldiga kelibdi va bolasining tarbiyasiga qachon kirishish kerakligi haqida so'rabdi. Donishmand bolaning necha yoshga kirganini so'rabdi. Besh yoshga to'lganini bilib onaga xitob qilibdi:

— Tezda uyga qayt!

Bola tarbiyasida eng kerak bo'lgan besh yilni sen boy berib qo'yibsan! Ma'lumki, bola dastlabki yillarda tarbiyaning asosiy qismini qabul qiladi. Tarbiya keyin ham davom etaveradi. "Lekin siz mevani keyin ko'ra boshlaysiz, — deydi bir donishmand. Bu o'zingiz bir vaqtlar, bolangiz besh yoshigacha bergan tarbiyangiz gulining mevasidir". Bu davrda bolaning olamni bilishi odamni bilishi orqali kechadi. Yaxshilik va yomonlik degan katta tushunchalar ota va onasining bir-biriga munosabati, ovozi, qarashi, harakati orqali borlig'iga singib boraveradi, deyishadi.

Mening nazarimda, tarbiya tug'ilajak bolaga ota-ona tanlashdan

boshlab to umrining oxiriga qadar davom etadigan jarayondir.

Xalqimizda, Daraxtdan meva olaman desang, uni nihollik davridan parvarish qil, degan ajoyib naql bor. Farzand bu inson mevasi. Har bir inson o'z farzandini baxtli bo'lib yaxshi yashashini istaydi. Shuning uchun ham farzandining tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. Tarbiya esa o'g'il yoki qizlik bo'lganidan keyin emas, balki o'g'il-qiz ko'rishga tayyorgarlik ko'rilyotgan, ya'ni oila qurish vaqtidan boshlanadi. Bizning islom dinimizda ham o'g'il yoki qizning tashvishi ona tanlash vaqtidan boshlanadi. Yoki ota tanlash vaqtidan boshlanadi. Chunki otaning axloqi, odobi, uning o'zini tutishi va insoniyligi, shuningdek, onadagi fazilatlar bolaga o'tishi isbot bo'lgan haqiqat. Bu narsa zamonaviy tibbiyotda ham o'z isbotini topgan. O'zingiz o'ylab ko'ring, o'ylamay-netmay qandaydir bir kamchiliklari bo'lgan yoki axloqi buzuk kishi bilan turmush qurgan inson o'zidan tug'ilgan farzandni tarbiyalashi qanday



og'ir kechadi. Shuning uchun payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. kelin yoki kuyov tanlash vaqtida ularning axloqiga, odobiga katta ahamiyat berishni aytganlar. Ana shunday ota-onadan tug'ilgan farzandni tarbiyalash naqadar oson.

Undan keyin homiladorlik vaqtida ham e'tiborli bo'lish joiz. Homilador bo'lgan ayolning ruhiy kechinmalari, unda kechadigan holatlar homilaga o'tishi isbotlangan. Shuning uchun ham farzand kutayotgan ayolga nisbatan muomala juda ehtiyotkorlik bilan u kishini o'ylash, avaylash bilan bo'ladi. Farzand ona qornida bo'lganida ona doim xursand bo'lishi, o'zini xotirjam his qilishi, yaxshi narsalar haqida o'ylashi, ongida yaxshi fikrlar bo'lishi kerak. Shunda ona qornidagi bola ham o'zini yaxshi his qiladi. Bizning o'zbek oilalarida esa endigina o'zga xonadonga qadam qo'ygan yosh kelinga nisbatan qaynonasi tomonidan juda katta talablar qo'yiladi. Yosh kelin esa hammaning ko'ngliga yo'l topaman deb juda qiynaladi. Natijada ona qornidagi bola ham qiynaladi. Oqibatda bola nuqsonli bo'lib tug'ilishi mumkin. Bundan bola ham, butun oila a'zolari aziyat chekadi. Aksincha, bo'lajak onani avaylab unga yaxshi munosabatda bo'linsa vitaminga boy mahsulotlardan tanavvul qilinsa, ona ham sog'lom bo'ladi. Sog'lom onadan esa sog'lom bola dunyoga keladi. Bu borada yurtimizda ancha ishlar qilinmoqda. Jumladan, xalqimizning asriy an'analari hisobga olib, "Ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli

bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'ladi", - degan hayotbaxsh qadriyat va olijanob g'oya jamiyatda chuqurroq anglab yetilishiga va qaror topishiga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatda onalarga alohida hurmat-e'tibor muhitini shakllantirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, oilaning mustahkam, sog'lom va ahil bo'lishida mahalliy davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish maqsadida, shuningdek 2016 yil O'zbekiston Respublikasida "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilinganligi hamda "Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturi qabul qilinganligi buning yaqqol dalilidir.

Ana endi bola tug'ilgach, birinchi kundan tarbiyaga kirishiladi. Avvalo, unga chiroyli ism tanlanadi. Farzand xoh o'g'il bo'lsin, xoh qiz bo'lsin – ota-ona uchun Alloh tomonidan berilgan ulkan bir ne'mat. Bu ne'matni asrab-avaylab voyaga yetkazish ota-onaning burchi. Uning tarbiyasini noto'g'ri yo'lga boshlagan ota-ona bolasi oldida ham, jamiyatning oldida ham javobgardir. Ota-onaning farzand oldidagi yana bir burchi – u farzandni halol taom bilan taomlantirmog'I kerak. Ya'ni halol yo'l bilan topgan narsadan, halol narsadan yedirsin. Chunki harom yeb o'sgan boladan yaxshilik kutish qiyin.

To'rtinchidan, otalar ham tarbiyani bolaning ona qornidagi vaqtdan boshlashi zarur. U ham ayoli kabi bola



bilan gaplashishi, ayoliga yaxshi munosabatda bo'lishi, farzand tug'ilganidan so'ng, uni emizikli vaqtdan tarbiyasiga mas'uliyatni olishi kerak. Aksariyat hollarda bizlarda yosh otalar farzand tarbiyasida ayolini, onasini, qaynonasini ba'zida opa-singillarini mas'ullar deb qabul qilib, bola tarbiyasiga qo'shilmay, o'zini uzoqroq tutadi. Bunga ko'pincha onalar sababchi bo'ladi, ya'ni "bola tarbiyasi ayollar zimmasida" deb o'g'illarini bunday muhim vazifadan chetlatadilar.

AYrim otalarimiz birday tarbiyani berib bormasligi oqibatini sodir etilayotgan huquqbuzarlik yoki jinoyatchiliklarning ortishida ko'rishimiz mumkin. Ularni madaniy dam olishlari uchun sharoit yaratmasliklari ham achinarli. Bu ba'zida bolalarini kichikligida istirohat bog'i, kinoteatr, dam olish maskanlariga, o'smirligida esa sayohatlarga olib chiqishlar bilan tugaydi. Xo'sh, ahvol nega shunday?

Javoblar oddiy. Onalarimiz sababchi deb, bahona qilamiz. Aslida tarbiya ona yoki otaning vazifasi deb, cheklanish emas. Tarbiya barchaning ishi. Qachonki farzand tarbiyasiga hamma birdek qarasa, shundagina ezgu maqsadga erishish mumkin. Kimnidir aybdor qilish bilan natijaga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham har kim o'z o'rnida bolaga kerakli tarbiyani berishi muhim. Xalqimiz orasida tarbiya berilishi goho ajratiladi. Masalan, onalarni qizlar tarbiyasiga mas'ul deb qaraladi. O'g'il bola tarbiyasi esa otaning zimmasiga yuklatiladi. Bu ajratilishi ham qaysidir ma'noda

to'g'ridek. Ammo tarbiyani kim berishligi emas, qanday berilishi muhim.

Beshinchidan, Farzand tarbiyasi gap bilan emas, balki amallar bilan amalga oshiriladi. Televizor ko'rayotgan onasini kuzatgan bolaga "Bor kitob o'qi" deyishdan ko'ra, televizorni o'chirib "Yur, birgalikda biron kitob o'qiymiz", - deyish maqsadga erishish uchun eng oson va foydali yo'l bo'ladi. Farzandi madaniyatli va tarbiyali bo'lishini istagan ota-onaga namuna bo'la olishi tarbiyaning eng muhim jihatidir. Ona qo'lga kitob o'qib o'tirsa, bola ham, hatto harfni tanimaydigan jajji bolakay ham kitob olib o'zi tilida o'qiy boshlaydi. Ota qo'lga ketmon olib yerga ishlov berayotgan bo'lsa, bolasi ham uning ortidan ergashib o'zicha yer chopayotgan bo'ladi. Aksincha, ona serialdan, ijtimoiy tarmoqlardan boshini ko'tarmasa, ota spirtli ichimlik ichsa, bola hech qachon bemalol dars tayyorlay olmaydi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", - deb shunga aytishsa kerak. Hozirgi zamonda axborot xuruji bo'layotgan bir paytda farzandlarimiz ommaviy madaniyatga, o'zligimizga xos bo'lmagan turli xil odatlarga ko'r-ko'rona ergashib ketaveradi. Bu narsa oxir oqibatda jamiyatni halokatga olib keladi. Shuning uchun kelajak avlodimizni tarbiyalashda har bir bola bilan avvalambor, ota-onaga, bog'chadagi tarbiyachi, maktabdagi ustoz-murabbiy individual ishlashi, qiziqishlarini, rivojlanishini kuzatishi, vaqtida uni to'g'ri yo'lga boshlashi kerak. Buning uchun uztozlarimizdan katta tajriba, mahorat va



mas'uliyat talab qilinadi. Dunyoga kelgan har bir inson o'zi bir dunyo, boshqasiga o'xshamaydi. Bami soli kalit.. O'sha kalit o'zining qulfiga tushgandagina muvaffaqiyatlarga erishadi Uning qulfini topa olish esa ota-onalarning va ustozlarning zimmasida. O'ylaymanki, bu aqidalarga amal qilinsa, mamlakatimizda

yana buyuk ajdodlarimizga munosib avlodlar dunyoga keladi. Ular o'zlarining go'zal odoblari, hammaga o'rnak bo'la oladigan chiroyli tarbiyalari, kuchli bilimlari bilan vatanimiz dovrug'ini butun dunyoga taratadi.